

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

"TASDIQLAYMAN"

G.Sh. Ixsiyeva


2025-yil "3" 06




**SHARQ XALQLARI ADABIYOTI POETIKASI
(FORS)**

FANINING O'QUV DASTURI


Bilim sohasi:	200 000-San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	230 000-Tillar
Mutaxassislik:	70230104 – Adabiyotshunoslik (sharq tillari bo'yicha)

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti direktori:  Mirzaxmedova X.V.

Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabi
boshlig'i:

 Nuriddinov N. N.

ARM boshlig'i

 Yuldasheva M.M.

Fan/modul kodi SXAP1204	O'quv yili 2025/2026	Semestr 2	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Sharq xalqlari adabiyoti poetikasi (fors)	48	72	120
2.	<p align="center">I. Fanning mazmuni:</p> <p>Fanning maqsadi: magistr'larga fors adabiyoti poetikasi, adabiyot nazariyasi fanlarida o'rganilayotgan milliy badiiy adabiyotning o'ziga xos xususiyatlari, uning rivojlanish qonuniyatlari va xarakteri, metodlari, janrlar, poetikani tashkil qiladigan asarning badiiy tili, uslubi, turli badiiy – tasviriy va ifodaviy vositalari to'g'risida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir.</p> <p>Fanning vazifasi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - badiiyatshunoslik masalalari bilan tanishtirish, ularni badiiy asar bilan ishlashga, undagi badiiy masalalar to'g'risida tasavvurga ega bo'lish; - badiiyatshunosligining dolzarb masalalarini ajrata olishga, tadqiq va tahlil etishni bilishi va ulardan foydalana olishi; - badiiy asar tili, badiiy sana't turlari, lafziy san'atlar, ma'naviy sana'tlar, badiiy troplar bo'yicha ko'nikmalariga ega bo'lish <p>Xorij tajribasiga muvofiqi:</p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi The Ohio State University (207 QS) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.</p> <p align="center">https://nesa.osu.edu/sites/default/files/Persian%202701%20AU17.pdf</p>			

3.	<p align="center">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p align="center">II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p align="center">I-mavzu. Poetikaning umumiy masalalari</p> <p>Sharq adabiyotida badiiyatshunoslik masalalari terminini kelib chiqishi. Antik davrda poetika termini bilan umumiy so'z san'atini nomlanishi. Zamonaviy "poetika" terminining turlari. Poetikani normativ nazariyasi sifatida shakllanishi va adabiy ijodiyot qonunlarining o'zgarimasligi haqidagi ta'limoti. Umumiy (nazariy), xususiy poetika va tarixiy poetika sohalari. Ularning vazifalari.</p> <p align="center">2-mavzu. Aristotel "Poetika"si va uning ahamiyati</p> <p>Aristotelning "Poetik san'at haqida" asarining mohiyati va adabiyotshunoslik uchun ahamiyati. Unda janrlarning tasniflanishi va ta'riflanishi. Arastu tomonidan</p>
----	--

adabiyotshunoslikka kiritilgan terminlar: katarsis va boshqalar.

3-mavzu. Adabiy jarayon va poetika.

Adabiy jarayonlarni o'rganishda tarixiy poetika nuqtai nazaridan monumental tadqiqotlar yaratishning asosiy vazifalari. Bu tadqiqotlarni an'anaviy xronologik – tavsifiy shaklda (davrdan-davrga, mamlakatdan mamlakatga, yozuvchidan yozuvchiga) yozilgan tadqiqotlardan farqli o'laroq, turli hikoyalarning, mamlakatlarning ko'p asrli adabiyot – badiiy tajribasini o'ziga mujassamlashtirgani bilan ajralishi va nazariy poetika tushunchalariga asoslanishi.

4-mavzu. Fors adabiyotida an'ana va novatorlik masalalari

O'rta asr adabiyotlari rivojida poetika termini mohiyatini o'zgarishi va poetikani adabiyotshunoslikning ma'lum bir sohasiga aylanishi, nazm hamda badiiy nasrda tasviriy – ifodaviy vositalar va obrazlar tizimi transformatsiyasi.

5-mavzu. Fors mumtoz adabiyoti poetikasi

O'rta asrlarda o'rganilayotgan Sharq mamlakatlari mumtoz adabiyoti poetikasi. Poetikani she'riyatga nisbatan adabiy tanqidchilik o'rmini egallashi va uning asosiy prinsiplarini belgilashi. She'riyat to'g'risida maxsus poetik risolalar, ulardagi she'riyatni tuzilishi va o'rganilish asoslari to'g'risidagi nazariya. Sharq poetika maktabining shakllanishi va manbalari.

6-mavzu. Kech o'rta asrlar davri adabiyoti poetikasi

Fors adabiyotida alohida o'rin egallagan kech o'rta asrlar adabiyotini tarixiy voqealari bilan bog'langan holda qalamga olinadi. Ushbu davr badiiy asarlardagi poetika. Xamsanavislik.

7-mavzu. “Bozgasht” davri badiiyati

“Bozgasht” qadimgi uslublarga qaytish tamoyili, ushbu uslubning maydonga kelishi, omillari o'rganiladi. Bunday sharoitda badiiy adabiyot, xususan she'riyatdagi yangi poetik struktura, xuroson va iroq uslublariga qaytish masalalari.

8-mavzu. Ma'rifatparvarlik adabiyoti poetikasi

XX asrda publitsistik poetikaning rivoji. Yangi janrlar – tarixiy roman, zamonaviy hikoya, yangi she'r shakllanishi. An'ana va yangilanish harakati mutanosibli. Ma'rifiy – badiiy asarlarning poetikasi.

9-mavzu. Fors adabiyotlarda vujudga kelgan romantizm va realizm yo'nalishlarining poetikasi.

Fors adabiyotida romantizm ko'rinishlari, realizmning o'ziga xosligi va milliy ruhi, neorealizm ko'rinishlari, realizmning asosiy ijodkorlari asarlarning poetikasi.

10-mavzu. Fors adabiyotda “yangi she'r” uslubi badiiyati

Fors adabiyotida yangi she'r uslubi badiiyati. Yangi guruh shoirlarining maydonga kelishi, ularning izlanishlari va tajribalari bayoni, she'riyatining poetikasi.

11-mavzu. Fors adabiyotiga jahon zamonaviy oqimlarining ta'siri.

Novatorlik jarayonlarda asarlar poetikasini o'rganish. Fors adabiyotida modernistik unsurlarning poetikasi. Yangi zamonaviy janrlar poetikasi: suyet-kompozitsiyasi sathlari, obrazlar tizimi, badiiy usul va vositalar.

12-mavzu. Forsadabiyotida modernistik unsurlar.

Modernizmning fors adabiyotiga ta'siri va unsurlarining namoyon bo'lishi, milliy meros va novatorlik masalasi. Modernistik adabiyot namunalariining poetikasi.

III. AMALIY MASHG'ULOTLAR BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

Amaliy mashg'ulotlarda magistrantlar "Sharq xalqlari adabiyoti poetikasi (fors)" fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, amaliy mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar va manbalar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

"Sharq xalqlari adabiyoti poetikasi (fors)" fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarga tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'rganilayotgan mamlakat adabiyotining qadimgi namunalariining poetika ilmi nuqtai nazaridan tahlildan o'tkazish.
2. Aristotelning "Poetika" asari bilan tanishish va uni tahlil etish.
3. Forsadabiyotida adabiy jarayon va adiblar estetik qarashlarini o'rganish.
4. An'ana va o'ziga xoslik fors adabiyotidagi eng muhim adabiy hodisa
5. Fors mumtoz adabiyotining shakllanishi va poetikasi
6. Ingliz-afg'on urushining fors adabiyotiga ta'siri va shu davr poetikasi
7. Qadimgi uslubga qaytish davri poetikasi
8. Matbuotning vujudga kelishi va uning badiiyati, adabiyot rivojiga ko'rsatgan ta'siri
9. Fors adabiyotida realizm va romantizm yo'nalishining vujudga kelishi va uning poetikasi
10. Fors adabiyotida "sabke toza" uslubi badiiyati va namoyandalari
11. Zamonaviy adabiy oqimlar va yo'nalishlarning fors adabiyotiga ta'siri
12. Fors adabiyoti va modernizm

IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

Mustaqil ta'limni baholash semester davomida berilgan topshiriq asosida bajarilgan ishlarni HEMNSga ilova qilinadi.

"Sharq xalqlari adabiyoti poetikasi (fors)" fanidan mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Uyg'onish davridagi adabiyot namunalariining tahlil qilib, ularning suyet tuzulishi, janri, kompozitsiyasini aniqlash.
2. Klassisizm poetikasi asoschisi Bualoning estetik qarashlarini o'rganish.
3. Klassisizm oqimining buyuk namoyondalari Kornel, Rasin asarlarini tahlil etish va "Uch birlik" qonuni tadbiriqini aniqlash.
4. Romantizm poetikasini Bayron she'riyati misolida aniqlash.
5. Mumtoz Sharq adabiyotidan poetikaga bag'ishlangan asarni tahlil qilish.
6. Milliy adabiyot poetikasining evolyusiyasini kuzatib borish va tamoyillarini aniqlash.

7. Tarixiy poetika nuqtai nazaridan badiiy usullarini takomillashini kuzatib borish.
8. Yangi davr milliy adabiyot poetikasining rivojini aniqlash.
9. Milliy mumtoz adabiyotining poetikasi rivoji
10. O'rta asr milliy adabiyotining poetikasini o'ziga xosligi (muayyan asarlar misolida)
11. Alohida olingan O'rta asr poetikasi risolasini tadqiqi.
12. O'rganilayotgan mamlakat zamonaviy adabiyotining poetikasining davriy rivojida yangi shakl va obrazlarning shakllanishi
13. Yangi davr adabiyotidan tanlab olingan nasriy asarning poetikasi.
14. She'riy asarning poetikasi (Yangi davr).
15. Zamonaviy milliy yozuvchini poetikasi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;
 - badiiy-ijodiy ishni bajarish;
 - kurs loyahasini bajarish;
 - aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;
 - berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;
 - amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;
 - ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash;
 - o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;
 - ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;
 - fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;
 - mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;
- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishi.

V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Talaba bilishi kerak:

- forstilida adabiy asarlarni o'rganishda nazariy bilimlarni qo'llash; badiiy adabiyotda shiddatli o'zgarishlar natijasida o'zgargan inson qarashlari, tushunchalari, qadriyatlarini ajrata olish;
- so'nggi yuz yil ichida mamlakatda ro'y bergan siyosiy-ijtimoiy o'zgarishlar va ularning afg'on xalqi tafakkur tarziga ta'siri masalalarini anglab yetish;
- badiiy obrazning real hayot bilan aloqasi qonuniyatlarini tadqiq etish haqida tasavvur va bilimga ega bo'lish;

	<ul style="list-style-type: none"> • fors mumtoz va zamonaviy adabiyotining jahon adabiyotidagi o'rni va uning bashariyat taraqqiyotidagi ulushi, yangi she'riyatda shoir dunyosining kashfini anglash; • nasriy va nazmiy asarlarning g'oyaviy tematikasini aniqlash, ijodkor va davr munosabatlari bo'yicha ko'nikmalariga ega bo'lishi • fors va jahon adabiyotidagi jarayonlarni o'zaro bog'liqlik nuqtai nazaridan tahlil qilish; • davr mahsuli – san'at asarini o'rganish; poetikaga ta'sir ko'rsatgan adabiyotning g'oyaviy-poetik mazmunini to'g'ri talqin qilish; • fors adabiyotida turli ijtimoiy-maishiy sharoitda yaratilgan asarlar poetikasini farqlay olish to'g'risida aniq malakalariga ega bo'lishi kerak.
4.	<p style="text-align: center;">VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • rolli o'yinlar(mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni tayyorlash; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar va hokazolar.
5.	<p style="text-align: center;">VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;">VII. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI</p> <p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Aristotel. Poetika. Qo'llanma. T., 2005. 2. No 'monjon rahimjonov. Badiiyat – bosh mezon. Akademnashr., 2016 3. Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Baddiy tahlil asoslari. Toshkent 2016. 4. https://nesa.osu.edu/sites/default/files/Persian%202701%20AU17.pdf <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mirziyoyev Sh. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – Toshkent: O'zbekiston, 2024. 2. Mirziyoyev Sh. Xalqchil islohotlar xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi 7-tom. – T., 2023. 3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2023. 4. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. T., 2018

def

5. Xodjaeva R., Qosimova G. Yapon adabiyotida zamonaviy adabiy yo'nalishlar va oqimlar. O'quv qo'llanma. T., 2019. 239 b.

Scopusdan maqolalar

1. Lacey Okonski, Journal of Pragmatics, Volume 211, 2023, Pages 27-30, ISSN 0378-2166, <https://doi.org/10.1016/j.pragma.2023.03.012>.
2. Stefan Blohm, Valentin Wagner, Matthias Schlesewsky, Winfried Menninghaus, Sentence judgments and the grammar of poetry: Linking linguistic structure and poetic effect, Poetics, Volume 69, 2018, Pages 41-56, ISSN 0304-422X, <https://doi.org/10.1016/j.poetic.2018.04.005>.
3. Oydin Turdiyeva, Kabirova Nargiza, Akmalxon Akmalxonov. (2023). Ideological and aesthetic features of modern iranian short story. The Second Pamir Transboundary Conference for Sustainable Societies. Elsevier/Scopus, 128, 133. <https://spast.org/techrep/article/view/5025>

Axborot manbalari

1. www.ziyonet.uz
2. www.persionbook.org
3. www.irandoc.ac.ir
4. <https://www.hamshahrionline.ir/>
5. <https://saadifoundation.ir/>

7. Fanning o'quv dasturi "Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabida ishlab chiqilgan va 2025 yil "20" 06 dagi 20 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025 yil "28" 06 dagi 11 - sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

8. **Fan /modul uchun mas'ul:**

M.S.Imomnazarov – TDSHU, Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabi professori, f.f.d.

N.K.Kabirova – TDSHU, Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabi dotsenti, PhD.

9. **Taqrizchilar :**

F.A.Nizamova – O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsenti, f.f.n.

D.Z.Muhiddinova –TDSHU, "Arabshunoslik" oliy maktabi dotsenti, DSc.